



SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025

UCHINCHI RENYENSSANS POYDYEVORI – ZIYOLI
YOSHLAR QO‘LIDA

Fozil Sultonov - Turon fanlar akademiyasi akademigi

Hayot Nurullayev - Respublika Ma’naviyat va

ma’rifat markazi bo‘lim boshlig‘i

Annotatsiya: Maqolada yot kuchlar tomonidan davlatimizga qarshi amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan axborot xujumiga qarshi himoyalash va bu holat yoshlarning o‘zini tutishida, dunyoqarashi, ijtimoiy-siyosiy faolligiga ta’siri masalalariga bag‘ishlangan.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы противодействия возможным информационным атакам, направленным против нашего государства со стороны внешних сил, а также их влияние на поведение молодёжи, её мировоззрение и социально-политическую активность.

Annotation: The article is dedicated to the issues of countering potential information attacks against our state by external forces, as well as their impact on the behavior, worldview, and socio-political activity of youth.

Kalit so‘zlar: uchinchi renensans, g‘oyaviy tahdidlar, axborot xujumi, yoshlar, ijtimoiy-siyosiy faollik.

Ключевые слова: третий Ренессанс, идеологические угрозы, информационная атака, молодёжь, социально-политическая активность.

Keywords: Third Renaissance, ideological threats, information attack, youth, socio-political activity.



SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025

Kirish. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyovning "O'qituvchilar bayrami"ga yig'ilgan ustoz, murabbiy va ziyolilarga qilgan **Murojaatlarida "Uchinchi renessans"**ni yaratuvchi beshta halqalarning asosiy poydevori- bu oiladagi ota-onaning mas'uliyati, uning ma'naviy-ma'rifiy dunyoqarashi ekanligini ta'kidlab o'tgan edilar: "Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakat-ni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu – ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug' istiqboli, birinchi navbatda, ta'lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog'liq.

Materiallar va usullar. Buyuk yunon olimi Aristotelning “**Vatan taqdirini yoshlar tarbiyasi hal qiladi**”,- degan so'zlari bor. Qarang, bu fikrlar miloddan avval aytilgan. Demak, insoniyat ongli hayot kechira boshlagan davrdan buyon ta'lim va tarbiya masalasi, doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelmoqda... Biz keng ko'lamli demokratik o'zgarishlar, jumladan, ta'lim islohotlari orqali **O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi Renessans** poydevorini yaratishni o'zimizga asosiy maqsad qilib belgila-dik. Bu haqda gapirar ekanmiz, avvalo, uchinchi Renessansning mazmun-mohiyatini har birimiz, butun jamiyatimiz chuqur anglab olishi kerak.

Umuman olganda, “Renessans” lug'aviy fransuzcha “qayta tug'ilish” degan ma'noni anglatadi. Renessans atalmish mazkur ijtimoiy hodisa o'zbek tiliga "Uyg'onish davri",- deb tarjima qilingan. O'tmishdan birinchi bo'lib teran tarixiy xulosa chiqargan -jadid bobolarimiz edi. Ular taklif qilgan islohotlar millatni qayta uyg'otish, taraqqiyot tomon burishni ko'zlagan edi. Ammo, mustabid hokimiyat jadidlar harakatini avj olmasdan bo'g'ib qo'ydi. Mustaqillikka erishgandan keyin dastlab chorak asr davomida milliy tiklanish bilan shug'ullanishga to'g'ri keldi.



**SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025**

Endilikda milliy tiklanishdan milliy yuksalishga o'tganimizdan keyin, uchinchi Renessansga erishishni davlat rahbari strategik vazifa etib qo'ydi.

Bugungi kun mafkuraviy kurashlar avj olgan davr hisoblanadi. Turli-tuman g'oyaviy kuchlar o'z ta'sir doirasini kengaytirish uchun tinimsiz ish olib borishmoqda. Bu jarayon mamlakatimiz hayotiga ham daxldordir. Zero, har-xil g'oya va mafkuralar bizning yurtimizga ham kirib kelmoqda. Ming afsusuki, ular orasida bizga begona bo'lgan, zararli g'oya va mafkuralar ham bor. Ularga qarshi turish uchun avvalo, mafkuraviy immunitetni kuchaytirish talab etiladi. Bu oiladan boshlanadi. Ma'lumki, Sharq xalqlari uchun oila muqaddas maskan. Oilaning mustahkamligi, tinchligi va osoyishtaligi bu davlatning mustahkamligi va osoyishtaligini ta'minlovchi manbadir. O'zbekistonda oila masalasi davlat siyosati maqomidagi qaraladi.. Taqqoslash uchun G'arb davlatlarida oilaga munosabat masalasini ko'radigan bo'lsak, oila bu har kimning shaxsiy ishi. Turmushga chiqadimi yoki yo'qmi, uylanib, oila qurib farzand ko'radimi yoki yo'qmi, bu har kimning o'zini ishi.

Hozirgi vaqtda turli shaklda tarqalayotgan materiallar zamiridagi ma'naviy, axloqiy buzuvliklar asta-sekin ijtimoiy xayotga ham kirib kelishi, axloqiy buzuvliklar yoshlar davrasida ommalashishi, ayrim oila-larga kirib borishi, odamlar onggiga singishi. Bu esa yz navbatida, video lavxa shaklidagi ma'naviy taxdidlar oilaviy qadriyatlarni, shaxs tarbiyasining milliy tizimini, axloqiy muxitni yemirilishi va unga zarar yetkazishi mumkinligini anglash.

Real hayotdan olinganday qilib tayyorlangan, aslida esa axloqsizlikni targ'ib etayotgan materiallarning tarqalishiga nisbatan loqayd bo'lish yz navbatida, qachonlardir yzaro ishonch, sevish va unga ishonish, oiladagi sog'lom axloqiy



SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025

muxit, xiyonat xissi, sog‘lom axloqiy dunyoqarash kabi kўplab narsalardan maxrum b‘ylish, faxshga oddiy xolat yoki voqea kabi kўnikma xosil qilishga olib keladi.

Natijalar va muhokamalar. Axborot xujumi platformasi barcha yoshdagilarni qamrab olmoqda. Tarqatilayotgan materiallar tarkibiga inson ongining tabiiy rivojlani-shini izdan chiqaradigan texnologiyalar singdirilmoqda. Axborot zamirida-gi bu texnologiyalar insonning dunyo qarashini izdan chiqarish bilan birga, uning ma’naviy-axloqiy shakllanishini barbod qilmoqda. Bunday xolatning oqibatini kўz oldingizga bir keltiring-a!? Bu borada olim Rahmon Qo‘chqorning masalaga quyidagicha yondashuvini mutlaqo to‘g‘ri deyish mumkin: “O‘ziga “axborot dunyosi”, “axborotlashgan jamiyat” deb nom qo‘yib olgan bugungi jumla jahonda u yoki bu voqea-hodisa haqida (u tarixda yuz berganmi yoki kuni kecha sodir bo‘ldimi – farqi yo‘q) ommaviy axborot vositalari “topib” tarqatayotgan ma’lumot, “tezkor xabar”qancha ko‘paysa, o‘sha voqea-hodisaga doir asl haqiqat shuncha mavhumlashib bormoqda”[1].

Axborot urushi xavfini yz vaqtida seza olish va undan ximoyalanish muxim axamiyatga ega. Chunki, davlatning barqarorligi va uning kelajagiga jiddiy xavf tug‘dirayotgan informatsion taxdidlardan himoyalanish – mamlakatni ximoya qilishning zamonaviy formalaridan biridir. Chunki biror siyosiy kuch, yoki boshqa yovuz kuchlar, yoki biror davlatning - boshqa bir davlatga tegishli b‘ylgan informatsion xududni egallashga qaratilgan xarakatlari, ikkinchi davlatning psixologik xavfsizligini xam buzishga qaratilgan b‘yladi. Bu xolat yoshlarning yzini tutishida, dunyoqarashi, ijtimoiy-siyosiy faolligida namoyon b‘yladi. Axborot xujumiga qarshi ximoyalanish esa, yot kuchlar tomonidan Davlatga qarshi amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan harakatlardan himoyalanishning tizimli tadbiridir [2].



SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE "THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT"
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025

XX asrda, g'arbda yangicha o'ylab topilgan "multi madaniylik" (yoki o'ta madaniylik) g'oyalari orqali tarqalgan "ommaviy madaniyat" tushunchasi, hozirda o'z "zaxarli meva"lari bilan ijtimoiy tarmoqda butun dunyoga tarqalmoqda. Eng achinarlisi shuki, "ommaviy madaniyat" g'oyalari bilan zaharlangan insonlar o'z fuqarolarimizdan ham chiqib turibdi. **Instagram video** ijtimoiy tarmog'ida "TIK-TOK" deb nom olgan ko'ngilochar dasturni ommalashgani hech kimga sir emas. Bu dastur yordamida har xil harakatlar o'yinlar va chiqishlar amalga oshiriladi. Eng asosiysi, ko'rinishdan beozor, hazil tariqasida yaratilgan ushbu dastur orqali "ommaviy madaniyat"ni yorqin namoyish etish, yoshlar ongini zaxarlash, axloqsizlikni targ'ib etish, milliy qadriyatlarimizga nisbatan beparvolik hissini uyg'otish. "Hozirda internet imkoniyatidan foydalanish madaniyati yurtimizda qanday shakllanmoqda? Internet - milliy qadriyatlar tizimiga qanday ta'sir ytkazmoqda? Ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilayotgan materiallar - shaxsning fikrlash jarayoniga salbiy ta'sir ytkazmayaptimi?,- degan savollar yuzaga kelishi tabiiy.

Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi "Ilmiy ekspertiza" bo'limi tadqiqotchilarimiz tomonidan o'rganilgan monitoringga ko'ra [3]:

5700 ta yaqin profillar, ijtimoiy kanallar, ko'ngilochar sahifalarda tarqatilayotgan materiallar mazmuni o'rganilganda quyidagi holatlar aniqlandi: ijtimoiy tarmoqda tarqatilayotgan materiallarning 70% -ni salbiy ta'sirga ega materiallar, foydalanuvchi va fikr bildiruvchilar ichida 51%- i buzg'unchi g'oyalarga berilgan. **Bu juda xavfli vaziyat emas-mi?!**

Shu o'rinda, mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyovning quyidagi fikriga e'tibor qaratish zarur: **"Biz bir narsani hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz zarur. Agar "ommaviy madaniyat" tahdidi faqat chetdan – G'arbdan kirib keladi, desak, qattiq adashamiz. Bu balo, afsuski, o'zimizdan, o'z oramizdan**



SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025

ham chiqishi mumkin. Men bu gaplarni osmondan olib aytayotganim yo‘q. Yurtimizda nashr etilayotgan ayrim gazeta-jurnallar, kitoblarni, suratga olinayotgan ba’zi klip va kinolarni, efirga berilayotgan qo‘shiq va raqslarni kuzatib, sog‘lom fikrlaydigan har qanday odam shunday xulosaga kelishi tabiiy” [4].

Ezgulikka, fikr sofligiga intilish insonga xos xislatdir. Aynan mana shu xislatlar shaxs rivojlanishining **ma’naviy negizi** bo‘lib xizmat qiladi. Har bir shaxs bu dunyoda o‘zining yashash huquqini, o‘z taqdirini, erkinligi ta’minlash yʼlidan borishi kerak. Bu yo‘lda unga ma’naviy-axloqiy g‘oyalar va qadriyatlar, axloqiy fazilatlar hamroh bo‘ladi, uni harakatga keltiradi, unga ma’naviy kuch va quvvat beradi.

Xulosa. Mustakil o‘zbek davlati - xalkimizning tarixiy yutug‘idir. O‘z davlati bilan faxrlanish va fuqarolarning vatanparvarligi jaxondagi ko‘pgina mamlakatlarning ilg‘or marralarga chiqib olishida yordam bergan. Shu bilan birga har bir ilm-ma’rifat va ma’naviyat bilan shug‘ullanuvchi ziyoli yoshlarimiz, o‘zini yuqorida Prezidentimiz aytgan "besh halqa" ustininig vakili sifatida his qilishi va butun kuch -g‘ayratini halqimizni uyg‘onishi- **«Yangi O‘zbekiston-yangi dunyoqarash»** g‘oyasi targ‘ibotiga safarbar etishi lozim. Yurtimizdagi ommaviy axborot vositalar faoliyatining asosiy mezonini sifatida esa **-milliy taraqqiyotimiz, xalqimiz tafakkurini o‘stiradigan, yoshlarimiz ongida milliy xususiyatlarimizni targ‘iboti-ga asosiy e’tiborni yo‘naltirishimiz, kelajakda Milliy yuksalishimizning poydevori - Uchinchi renenssansi barpo etishda o‘z samarasini berishi shubhasizdir.**



**SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025**

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Rahmon Qo‘chqor. Dunyo kurash maydonidir//. – Tafakkur-2016. 4-son B. 24.
2. Sultonov F. X., Sultonova E.S. G‘oyaviy tahdidlar yo‘nalishlari. (“Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va targ‘ibotning zamonaviy texnologiyalari”). Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari, Toshkent, 2022, 35-39 bb.
3. Sultonov F.X., Hojiyev F.J. OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI (TELEVIDENIE, IJTIMOY TARMOQ VA MATBUOT) DA TARQATILAYOTGAN IJTIMOY-SIYOSIY MATERIALLAR ILMIY TAHLILI. Toshkent, “ART VERNISSAGE” nashriyoti, 2023-yil, 232 b.
4. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasi . Xalq so‘zi. 2017-yil 5-avgust.